ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI

Mo‘minova Dilnoza Muhiddin qizi
Buxoro davlat universiteti
Yurisprudensiya kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: mominovad99@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21806267

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda korrupsiyaga oid sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni oldini olish nafaqat bizning davlatimiz balki, butun dunyo mamlakatlari uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada korrupsiya atamasi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik turlari, milliy qonunchiligimizda aks ettirilgan normalar va yaqin yillarda kiritilgan o’zgartirishlar atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish uchun takliflar berilgan.

KALIT SO’ZLAR

Korrupsiya, huquqbuzarlik, javobgarlik turlari, jinoiy javobgarlik, mansabdor shaxs, mas’ul mansabdor shaxs, legallashtirish, profilaktika.

ABSTRACT

Today, the prevention of corruption-related offenses is one of the most pressing issues not only for our country, but also for countries around the world. This article analyzes in detail the term corruption, types of liability for corruption offenses, norms reflected in our national legislation, and changes introduced in recent years. At the end of the study, proposals are made to prevent corruption offenses.

KEY WORDS

Corruption, offense, types of liability, criminal liability, official, responsible official, legalization, prevention.

АННОТАЦИЯ

Сегодня предотвращение коррупционных преступлений является одним из актуальных вопросов не только для нашего государства, но и для стран всего мира. В статье подробно анализируется термин «коррупция», виды ответственности за коррупционные правонарушения, нормы, отраженные в нашем национальном законодательстве, а также изменения, внесенные в последние годы. В конце исследования даны предложения по предупреждению коррупционных правонарушений.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Коррупция, правонарушение, виды ответственности, уголовная ответственность, должностное лицо, ответственное должностное лицо, легализация, профилактика.

KIRISH

Jinoyat huquqida korrupsiya atamasi davlat organlari va idoralarida ishlaydigan mansabdor shaxslarning yoki davlat xizmatchilarining uyushgan guruh tashkil etib, bundan tashqari, boshqa jinoyatchilar bilan o’zaro til biriktirib jinoyat sodir etishini anglatadi.

Korrupsiyaning ko‘rinishlaridan biri hisoblangan mansabdorlik jinoyatlari qonunlarning ijrosini ta’minlaydigan va ularni qo‘riqlaydigan shaxslar tomonidan sodir etiladi. Bu jinoyatlar ko‘plab g‘arb davlatlarida keng tarqalgan bo‘lib, mazkur davlatlarda davlat apparatining korrupsiyaga botganligi, qonun chiqaruvchi organ tomonidan korrupsiyaviy illatlarning ko‘rinishlaridan bo‘lgan poraxo‘rlik, o‘z mansab vakolatini suiiste’mol qilish va boshqa xizmat vazifasi bilan bog‘liq bo‘lgan mansabdorlik jinoyatlari uchun qattiq jazo turlarini kuchaytirish bilan bir vaqtda, mansabdor shaxslar tomonidan sodir

etiladigan ijtimoiy xavflilik darajasi kamroq bo‘lgan va keng tarqalmagan jinoyat turlariga kamroq e’tibor berib kelinmoqda[1].

Shuning uchun ham, korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lgan huquqbuzarliklarni va jinoyatlarni o‘rganish uchun mavjud bo‘lgan mansabdorlik jinoyatlari va mansabdor shaxslarning xizmat sohalarini tizimli tahlil qilish zarur hisoblanadi.

MATERIAL VA METODLAR

Mazkur maqola tahliliy tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o’z ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari asosida korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaviy huquqbuzarlik turlari, javobgarlik masalalari va turlari, shuningdek, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni profilaktika qilish asoslari tahlil qilingan.

Tadqiqot ishini amalga oshirishda tizimli hamda qiyosiy-huquqiy tahlil qilish, shuningdek, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiy-huquqiy va statistik ma’lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan. Davlatimizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlari va jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga oid tahlillar tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning qanday shart-sharoitlarda sodir etilganligini o‘rganish mazkur shaxsning harakatini kvalifikatsiya qilish va unga nisbatan jazo tayinlash uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jinoyat kodeksimizda mavjud bo’lgan jinoyatlar orasida korrupsiya jinoyati o‘ta xavfli hisoblanib, insonning hayotiga, sog‘ligiga, mulkka, mamlakat barqarorligiga, shuningdek bir qancha jinoyatning obyektiga zarar yetkazishi bilan jamiyatimizga jiddiy xavf tug‘diradi.

Davlat tomonidan jamiyatni boshqarish insonlar xulq-atvorini ishontirish va majburlash usullari yordamida tartibga solishdan iborat hisoblanadi. Shaxslarda amaldagi qonun-qoidalarga binoan munosib xulq-atvorda bo’lish zarurligi va maqsadga muvofiqligini anglashni yuzaga keltirish orqali ishontirishni amalga oshirishga erishsa bo’ladi. Ikkinchi usul ham mavjud bo’lib, bunda huquqiy normalar qoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofazalash maqsadida majburlov choralarini qo’llash orqali vakolatga ega bo’lgan huquq tartibot organlari tomonidan amalga oshiriladi. Umuman olganda, ishontirishdan iborat bo’lgan majburlov usuli bilan huquqiy tartibga solish fuqarolar xulq-atvoriga huquqiy normalar yordamida maqsadli ta’sir ko’rsatishni mujassamlashtirgan bo’lib, u ijtimoiy munosabatlar doirasida amalga oshiriladi. Javobgarlikning o’zi, umuman olganda, huquqiy munosabatni tashkil etadi.

Davlatimiz qonunchiligida javobgarlikning quyidagi turlari mavjud:

Intizomiy javobgarlik;
Fuqaroviy javobgarlik;
Ma’muriy javobgarlik;
Jinoiy javobgarlik;
Moliyaviy javobgarlik.

Har bir javobgarlik turining o’ziga xos bo’lgan belgilari mavjud bo’lib, bu belgilar orqali ular bir-biridan farq qiladi. Jinoiy javobgarlik quyidagi o’ziga xos bo’lgan belgilarga ega:

1. Qo’llanish asoslari bo’yicha (faqat Jinoyat kodeksida mavjud bo’lgan modda bo’yicha);
2. Qo’llashning mazmuni bo’yicha (jinoyat uchun jazoni sud davlat nomidan tayinlaydi, boshqa javobgarlik turlarida unday emas);
3. Javobgarlikning qo’llanish subyekti bo’yicha farqi (jinoyatda jazoni sud beradi);
4. Qo’llanish tartibi bo’yicha farqi (jinoiy jazo faqat Jinoyat protsessual kodeksida belgilangan tartibda tayinlanadi);
5. Javobgarlikka tortiladigan subyektlarning doirasi bo’yicha farqi (jinoyatda faqat jismoniy shaxslar javobgar bo’ladi, fuqarolikda esa yuridik shaxslar ham javobgar bo’ladi).

[1] https://daqn.uz>2022/11/08

Korrupsiyaga oid qilmishlar uchun javobgarlik:
- Jinoyat kodeksi (192^{1}-192^{11}, 205-214-moddalar);
- Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks (15, 61^{1}, 179^{3}, 179^{5},215^{3}, 241^{1}-241^{11}-moddalar va h.k.);
- Mehnat kodeksi (6, 34, 78, 79-moddalar va h.k.).

Jinoyat kodeksimizda aynan korrupsiya hodisasi uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi aniq modda belgilanmagan.

2009-yilda nashr etilgan Yuridik ensiklopediyada "Korrupsiya bu o'zi alohida jinoyat qonunida mustaqil jinoyat tarkibiga ega bo'lmay, balki bir qator mavjud bo'lgan mansabdorlik jinoyatlarini o'z ichiga qamrab oluvchi umumlashgan tushunchadir" deb ta'rif berilgan[2].

Haqiqatdan ham, korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarning xususiyatidan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, mazkur qilmishlar faqatgina, jinoyatning maxsus subyekti hisoblangan mansabdor shaxs tomonidan sodir etilishi bilan tavsiflanandi.

Shuning uchun korrupsiyaviy jinoyatlarni o'rganish uchun quyidagi mansabdorlik jinoyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksi moddalari:

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiste'mol qilish (205-modda);

Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (206-modda);

Mansabga sovuqqonlik bilan qarash 207-modda);

Hokimiyat harakatsizligi (208-modda);

Mansab soxtakorligi (209-modda);

Pora olish (210-modda);

Pora berish (211-modda);

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (243-modda) va boshqalar.

Korrupsiyani keltiruvchi boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar, mansabdor shaxs tomonidan quyidagicha sodir etilishi mumkin:

Vakolatidan qasddan noqonuniy foydalanishda (JK 205-modda);

Vakolatlar doirasiga kirmaydigan harakatlarni sodir etishda (JK 206-modda);

O'z vazifalariga loqaydlik yoki vijdonsizlarcha munosabatda bo'lishi oqibatida ularni bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmaslikda (JK 207-modda);

O'z xizmat vazifasi yuzasidan bajarishi lozim yoki mumkin bo'lgan harakatlarni qasddan bajarmasligi yoki jinoyatga yo'l qo'yishida (JK 208-modda) namoyon bo'ladi.

Mazkur 205, 206, 207, 208 va 209-moddalar bo'yicha javobgarlikning umumiy sharti sifatida, ushbu jinoyatlarni sodir etilishi natijasida:

Ko'p miqdorda zarar yetkazish deganda, bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravaridan 500 baravarigacha bo'lgan miqdordagi zarar tushuniladi.

Jiddiy ziyon yetkazish deganda esa, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini poymol qilish, davlat hokimiyati tegishli idoralarining nufuzi va ishonchining pasayishi nazarda tutiladi.

Korrupsiyaning eng keng tarqalgan turlaridan biri poraxo'rlik hisoblanadi.

Bizning jinoyat kodeksimizda poraxo'rlik tushunchasi quyida ko'rsatilgan 3 ta turdagi jinoyat bilan ta'riflanadi:

– pora olish;

– pora berish;

– pora olish-berishda vositachilik qilish.

Poraxo'rlik jinoyatlarining eng xavflisi bu JKning 210-moddasida nazarda tutilgan pora olish jinoyati hisoblanadi. Mansabdor shaxslar tomonidan pora olish jinoyatining ijtimoiy xavfliligining yuqoriligi davlat organi normal faoliyatining buzilishi, mazkur davlat organining obro'si tushishi, aholining ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchining so'nishi hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda manfaatlarining buzilishiga olib kelishi bilan tavsiflanadi.

[2] O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi "Adolat" nashriyoti, 2009-yil

Ushbu jinoyat turining korrupsion jinoyatlar orasida eng xavfli ekanligini isboti sifatida pora olish jinoyatini sodir etgan shaxs uchun 15 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosini belgilanganligini misol qilib keltirishimiz mumkin[3].

Mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilayotgan korrupsiyaga oid jinoyatlar natijasida, aybdorlar tomonidan katta miqdorda noqonuniy moddiy boyliklarga ega bo'layotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Buning natijasida esa, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazilmoqda.

Chunki korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etayotgan mansabdor shaxslarning asosiy maqsadlaridan biri, mansab vakolatini suiiste'mol qilish yoki foydalanish orqali noqonuniy tarzda moddiy qimmatliklarga ega bo'lish yoxud mulkiy manfaatdor bo'lish hisoblanadi.

Mazkur daromadlarga qonuniy tus berish va ulardan foydalanish maqsadida, ular tomonidan bunday daromadlarni legallashtirish harakatlari amalga oshiriladi.

2015-yil 20-avgust kuni "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"[4]gi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-391-sonli Qonuni qabul qilindi va mavjud 33 ta qonun hujjatlari va 10 ta kodeksimizga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Binobarin, Jinoyat kodeksi XIII[1] bob bilan to'ldirildi.

XIII[1] bob. Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar.

Ushbu Qonun bilan Jinoyat kodeksiga korrupsiyaviy jinoyatlarga oid yangi moddalar kiritildi:

192[9]-modda. Tijoratda pora evaziga og'dirib olish;

92[10]-modda. Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish;

192[11]-modda. Nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish.

BMTning "Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi" talablaridan kelib chiqib, Jinoyat kodeksida mavjud bo'lgan "Mansabdor shaxs" atamasining yangi tahrirdagi huquqiy ma'nosi quyidagi tahrirda bayon etildi:

"**Mansabdor shaxs** – doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifasini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'iy nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy - xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoki chet davlatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs"[5] hisoblanadi.

"Mas'ul mansabdor shaxs" tushunchasi Jinoyat kodeksidan chiqarib tashlandi. Bu holat esa o'z navbatida, Jinoyat kodeksining 243-moddasida nazarda tutilgan "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish" uchun jinoiy javobgarlik keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda amaliyotda mazkur jinoyatga nisbatan "Pullarni yuvish" singari nom berilgan[6].

Ushbu jinoyat turning xavfliligi shundan iboratki, uni sodir etish natijasida qonuniy tus berilgan noqonuniy daromadlar yangi jinoyatlarni sodir etishga, hattoki, uyushgan jinoyatchilikning vujudga kelishiga va uni faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishiga olib keladi va shu tufayli davlatimizning milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid solidi.

---

[3] https://daqn.uz>2022/11/08

[4] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-yil 20-avgust, O'RQ-391-son

[5] O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan O'RQ-2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // https://lex.uz/docs/-111453

[6] https://daqn.uz>2022/11/08

Ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligi yuqori darajada ekanligi sababli, mazkur jinoyatni sodir etganlik uchun Jinoyat kodeksida 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi jazosi belgilangan[7].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati muntazam va kompleks tarzda olib borilib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini, ayniqsa davlat boshqaruvi va iqtisodiyot singari yo'nalishlarni qamrab olmog'i darkor. Bu borada alohida e'tibor albatta korrupsiya hodisasini oldini olish chora-tadbirlariga qaratilishi bilan bir vaqtda jinoiy-huquqiy choralar majmuiga ham e'tibor qaratishimiz lozim. Davlatimizda so'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar milliy qonunchiligimizning korrupsiyaga qarshi kurashuvchi jihatlarini jiddiy kuchyishiga olib keldi. Ayniqsa 2014-yilda qabul qilingan "Davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasiga kiradi. Lekin bu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar ko'lami yanada keng hisoblanadi.

Korrupsiyaga oid jinoyatalarni maxsus profilaktika qilish, bu borada mavjud bo'lgan maxsus qonunchilikni takomillashtirish va qonunni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirish, mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab berish, shuningdek, boshqaruv faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlashni talab etadi. Bunday vaziyatda, korrupsiyaga oid qonunchilikdagi salbiy ko'rinishlarni bartaraf etish, yanada keng ko'lamdagi ijtimoiy-huquqiy nazoratni kuchaytirish zaruriyati vujudga keladi.

Shuningdek, korrupsion illatlarga qarshi kurashda mansabdor shaxslar tomonidan xizmat vakolatini suiste'mol qilishni oldini oluvchi maxsus huquqni cheklovchi maxsus profilaktik kompleks tadbirlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. https://daqn.uz>2022/11/08
2. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi "Adolat" nashriyoti, 2009-yil
3. https://daqn.uz>2022/11/08
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-yil 20-avgust, O'RQ-391-son
5. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan O'RQ-2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // https://lex.uz/docs/-111453
6. https://daqn.uz>2022/11/08
7. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan O'RQ-2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // https://lex.uz/docs/-111453

[7] O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan O'RQ-2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // https://lex.uz/docs/-111453